



ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 13th October 2022

KEY WORDS

Qishloq, sanoat, mexanizatsiya, rivojlantirish, jahon iqtisodiyoti, mamlakat rivojlanishi.

QISHLOQ XO'JALIGINING RESPUBLIKA IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Bozorov Javohir Musurmonqul o'g'li

Termiz agratexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institute,

javohirbozorov637@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7192371>

ABSTRACT

Ushbu maqolada Qishloq xo'jaligining respublika xalq xo'jaligida tutgan o'rnini, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini, tarmoqning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini, erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish bosqichlaridagi o'zgarishi, ularga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishni, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan hukumatning tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning qulay xududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi dinamik holda rivojlanib borayotgan murakkab iqtisodiy tizimga ega bo'ldi. Qishloq xo'jaligi Respublika iqtisodiyotining yirik va muhim tarmog'i sifatida saqlanib qoldi. Chunki bu hududda tabiiy-iqlim sharoitlar yetarlidir. Jumladan, Respublikada yillik samarali temperatura 26-30° ni tashkil etib, quyoshli soat 3600 dan ortiq bo'lib, bir yilda birnecha marta hosil olish imkonini beradi. O'zbekistonning jami yer maydoni 44.4 mln. gektar (2004 y.) bo'lib, shundan 50,8 foizini turli xildagi qishloq xo'jalik korxonalari, tashkilotlari hamda dehqon xo'jaliklari foydalanadilar: ularning yig'indisi mamlakat qishloq xo'jaligini tashkil etadi. Uning asosiy maqsadi tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan mamlakat aholisining iste'mol tovarlariga,

qayta ishlash sanoatini esa xomashyoga bo'lgan talablarini qondirishdir. Buning uchun:

-aholi birdaniga iste'mol qiladigan sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlarini barcha talablarni qondiradigan darajada ishlab chiqarish;

-qayta ishlash sanoati korxonalarining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishi lozim.

Hozirgi davrda, bu tarmoqda aholi iste'mol qilayotgan tovarlarning 95 foizidan ko'prog'i ishlab chiqarilmoqda. Ular o'simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlaridan iboratdir. 2004 yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 26,8 foizi qishloq xo'jaligida yaratilgan. Shu yilda barcha sanoat tarmoqlarida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 17,1 foizi, qurilishda esa 4,5 foizi yaratilgan. Raqamlar qishloq xo'jalik tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rne ulkan ekanligidan dalolat bermoqda. Shu yilda qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan barcha turdagi tadbirkorlar



tomonidan 4732,0 mlrd so'mlik yalpi mahsulot yaratilgan. U asosan 3535,4 ming tonna paxta, 6017,1 ming tonna don, 3315,9 ming tonna sabzavot, 846,3 ming tonna meva, 996,3 ming tonna go'sht, 4280 ming tonna sut, 674,8 ming dona qorako'l teri, 1860,3 mlrd. dona tuxum va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlaridan tashkil topgan.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotdagi o'rni juda katta. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 26-30 foizi shu tarmoqning ulishiga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan erkin harakatdagi qattiq valyuta tushumining yarimidan ko'prog'i shu tarmoq mahsulotlarini eksport qilishdan olinadi. Aholining 60 foizidan ortiqrog'i qishloq joylarda yashaydi. Halqimizning turmush darajasi, inson resurslarining katta bir qismining ish bilan ta'minlanishi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo'lgan mehnat resurslarining 28 foizdan ko'prog'i qishloq va o'rmon xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi. Shu boisdan ham qishloq xo'jaligiga e'tibor, ayniqsa keyingi mustaqillik yillarida, xaqli ravishda katta bo'lmoqda.

Barcha turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarni ishlab chiqarishda respublika iqtisodiyotida band bo'lgan mehnat resurslarining 31 foizga yaqini qatnashgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishda sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan ko'plab qishloq xo'jalik texnikalari, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yonilg'i, yog'lovchi materiallar va boshqa vositalardan foydalanilmoqda. Masalan, tarmoqda 2004 yilda 78,9 mingga yaqin

turli xildagi traktorlar, 22,7 mingtadan ko'proq yuk tashish mashinalari, 4,4 mingtaga yaqin g'alla yig'ishtiradigan, bir mingtaga yaqin paxta teradigan kambayinlar, ko'plab boshqa texnikalardan foydalanilgan. Tarmoq miqyosida yerlarning unumdorligini, ekinlarning esa hosildorligini oshirish maqsadida 332,7 ming tonna mineral o'g'itlardan foydalanilgan. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqilayotgan mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarilishi natijasida O'zbekistonning mavqeyi oshib bormoqda. Hozirgi davrda A va Ye tipdagi paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha jahonda Xitoy, AQSh, Hindiston va Pokiston davlatlaridan so'ng beshinchi o'rinni, ularni eksport qilish bo'yicha esa 2-o'rinni egallab kelmoqda. Shuning bilan birgalikda O'zbekiston jahon bozoriga nihoyatda sifatli bo'lgan qorako'l terisini, pillasini, sabzavot, poliz va bog'dorchilik mahsulotlarini olib chiqib sotmoqda. Lekin Respublikaning bu boradagi salohiyatidan to'liq foydalanilayotgani yo'q. Uni ijobiy hal etish uchun tarmoqda etishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab, jahon bozoriga tayyor mahsulotlarni chiqarish lozim. Bu borada so'ngi yillarda chet el investisiyalarini jalb etib katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ularni kelajakda jadal sur'atlar bilan rivojlantirish siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda mamlakat aholisining qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlash darajasi yil sayin ortib bormoqda. 2004 yilda respublika aholisining jon boshiga 160 kg.ga yaqin un mahsulotlari, 135 kg paxta xom ashyosi, 127 kg sabzavot mahsulotlari, 34 kg dan ko'proq kartoshka, 38 kg go'sht, 164 kg sut hamda 72 donaga yaqin tuxum ishlab chiqarilgan.

Qishloq xo'jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi



tarmoqlaridan biri bo'lib, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xomashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi, asosan ikkita yirik tarmoq-dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Bu ikki soha aholi uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi o'simlik va chorvachilik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlaydigan bir qancha tarmoqlarni ham o'z ichiga oladi. Iqtisodiy jihatdan faol aholining taxminan yarmi, kamroq taraqqiy etgan mamlakatlarda esa ko'pincha 80-90 foizidan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etadi. Qishloq aholisining ijtimoiy muammolari, joylashishi qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bir qancha mamlakatlarda o'rmon xo'jaligi ham qishloq xo'jaligi tarkibiga kiradi.

2015 yilga kelib, jahon aholisi 7 milliard nafardan oshib ketdi va bu ko'rsatkich yil sayin ortib borishi

kutilmoqda. Ularni oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash uchun har yili oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini 4-5 foiz oshirib borish kerak. Har bir mamlakatda qishloq xo'jaligining rivojlanishi o'ziga xos ichki xususiyatlar e'tiborga olinishini talab qiladi. Bu esa tabiiy, ijtimoiy ixtisoslashuvni taqozo etadi.

Barcha paxta, g'alladan tashqari boshqa mahsulotlarni etishtirib, ularni sotishda erkinlik berildi. Tadbirkorlarga ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun turli xildagi imtiyozli kreditlar berilgan. Lekin amalga oshirilayotgan tadbirlar o'sib borayotgan talabni to'liq qondira olmaydi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan barcha turdagi islohotlarni erkinlashtirish, ularni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu kelajakda qishloq xo'jaligining yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlab, uning ahamiyatini oshirib, respublika iqtisodiyotining yuksalishini ta'minlaydi.

References:

1. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi.
2. Salimov B.T. va boshqalar. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi.
3. Модель "Сельская профильная школа" - М.: АПК и ППРО, 2004
4. Экономика сельского хозяйства. Учебник, под.ред. Коваленко. Н.Я.М.: Юркнига, 2004
5. Zokirov O., Pardaev A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik.-T.: O'AJBNT markazi 2003.